



SAMARQAND VILOYATINING DEMOGRAFIK HOLATI

(Dastlabki ma'lumotlar)


Samarqand viloyatining doimiy aholisi soni 2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra **3 982,4 ming kishini** tashkil etib, yil boshidan **34,7 ming kishiga** yoki **0,9 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1 469,8 ming kishini** (jami aholi sonidagi ulushi **36,9 %**), qishloq aholisi soni **2 512,6 ming kishi (63,1 %)**ni tashkil etdi.




Doimiy aholi sonini hisoblanishi hisobot yili boshidagi aholi soniga hisobot davridagi tug'ilganlar va ko'chib kelganlar sonini qushib, o'lganlar va ko'chib ketganlar sonini ayirib tashlash natijasida hosil bo'ladi.




Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi



Doimiy aholi sonining o'sish sur'ati (2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)




Samarqand viloyati bo'yicha aholi zichligi (2021- yil 1- iyul holatiga, 1 kv.km. ga kishi)



Samarqand viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar (yanvar-iyun, ming kishi)


	2020 -y	2021 -y
Tug'ilganlar	44,5	47,4
Vafot etganlar	7,7	8,5
Aholining tabiiy o'sishi	36,8	38,9
Kelganlar	2,2	5,7
Ketganlar	7,1	9,8
Migratsiya sal'dosi	-4,9	-4,1
Tuzilgan nikohlar, ming birlik	7,1	13,3
Nikohdan ajralishlar, ming birlik	1,3	2,0
<i>1000 aholiga nisbatan koeffitsiyentlar, promille</i>		
Tug'ilish	23,0	24,1
O'lim	4,0	4,3
aholining tabiiy o'sishi	19,0	19,8
tuzilgan nikohlar	3,7	6,8
nikohdan ajralishlar	0,7	1,0

2021- yil yanvar-iyun oylarida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni, kishi



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi


(2021- yil 1-iyul holatiga; viloyat jami aholisiga nisbatan, % da)



Viloyat hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2021- yil 1- iyul holatiga eng ko'p aholi soni Samarqand shahriga to'g'ri kelib, viloyat aholisi sonidagi ulushi 14,0 % ni tashkil etdi. Urgut 13,2 % ni, Pastdarg'om 9,1 % ni va Kattaqo'rg'on tumanlarida 7,0 % ni tashkil etgan.




Tug'ilganlar soni



Tug'ilish. 2021- yilning yanvar-iyun oylarida 47 394 nafar bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 24,1 promilleni tashkil etib, (2020- yilning yanvar-iyun oylarida 23,0 promille bo'lgan) tug'ilish koeffitsiyenti 1,1 promillega ko'paygan.




Hududlar kesimida tug'ilganlar soni va tug'ilish koeffitsiyenti (2021- yil yanvar-iyun)




Ma'lumot uchun: *Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.*






Vafot etganlar soni




Vafot etganlar. 2021- yilning yanvar-iyun oylarida 8 551 kishining o'limi qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,3 promilleni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan (2020- yilning yanvar-iyun oylarida 4.0 promille bo'lgan) o'lim koeffitsiyenti 0,3 promillega ko'paygan.

Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti: (2021 –yil, yanvar-iyun)




2021- yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan o'lim holatining 63,2 % i - qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 7,9 % i – o'simtaldan, 4,9 % i - baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,0 % i - ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 6,0 % i - nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 0,8 % i - yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 12,2 % i - boshqa kasalliklardan vafot etgan.






Tuzilgan nikohlar soni (ming birlik)




Hududlar kesimida nikoh tuzganlik koeffitsiyenti (1000 aholiga nisbatan)




Eng yuqori nikoh koeffitsiyenti (promille), Payariq (8,2), Kattaqo'rg'on sh. (7,8) Jomboy (7,6) va Paxtachi (7,4) tumanlarida kuzatildi.

Eng kam nikoh tuzish koeffitsiyenti (promille) Nurobod (5,5), Samarqand shahar (6,1), Qo'shrabot (6,3) va Toyloq (6,4) tumanlarida kuzatildi.





Nikoh. 2021- yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 13 316 kishining nikohi qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 6,8 promilleni tashkil etdi.

(2021 –yil, yanvar-iyun)






Nikohdan ajrashganlar soni (ming birlik)




Hududlar kesimida nikohdan ajralish koeffitsiyenti (1000 aholiga nisbatan)




Eng yuqori nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti (promille) Samarqand shahar (**1,7**), Kattaqo'rg'on shahar (**1,5**), Samarqand (**1,4**), Payariq (**1,1**) tumanlarida kuzatildi.

Eng kam nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti (promille) Nurobod (**0,5**), Urgut (**0,6**), Qo'shrabot (**0,7**) va Oqdaryo (**0,7**) tumanlarida kuzatildi.



Nikohdan ajralishlar. 2021- yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO bo'limlari tomonidan 2 041 kishini nikohdan ajralishlari qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,0 promilleni tashkil etdi.

Hududlar kesimida nikohdan ajrashganlar koeffitsiyenti (yanvar-iyun)



Migratsiya. 2021- yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 5 735 kishini, ko'chib ketganlar soni esa 9 857 kishini tashkil etdi. Migratsiya sa'ldosi minus 4 122 kishi bo'lib, 2020- yilning mos davrida minus 4 805 kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (*kishi*)

	2020- yil yanvar-iyun	2021- yil yanvar-iyun
Ko'chib kelganlar	2 255	5 735
Ko'chib ketganlar	7 060	9 857
Migratsiya sa'ldosi	-4 805	-4 122

Migratsiya sa'ldosining yuqori darajasi Payariq (minus 826 kishi), Urgut (minus 797 kishi), Qo'shrabot (minus 615 kishi), Paxtachi (minus 580 kishi), Ishtixon (minus 532 kishi) hamda Kattaqo'rg'on (minus 517 kishi), Pastdarg'om (minus 503 kishi) tumanlarida kuzatildi.



**Demografiya va mehnat
statistikasi bo'limi**
(66) 235-72-35